



BANKLARDA MUDARABA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA KORXONALAR RISKLARINI TAHLIL QILISH YO'LLARI

WAYS TO ANALYZE THE RISKS OF ENTERPRISES IN FINANCING MUDARABA PROJECTS IN BANKS

¹Alimardonov Ilxom
Muzrabshoxovich,
²Saidov Baxtiyor
Xayrullayevich

¹O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi "Bank ishi"
kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
²O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada O'zbekiston bank sektorida islomiy moliyalashtirish instrumentlaridan biri bo'lgan mudaraba asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan korxona risklarini tahlil qilish va ularni boshqarish vositalari ilmiy asosda o'rganilgan. Tadqiqotda mudaraba bitimlarining iqtisodiy mohiyati, risklarning turlari va ularning bank hamda tadbirkor o'rtasida taqsimlanish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy, operatsion, shariatga muvofiqlik, axborot assimetriyasi va bozor risklarining mudaraba loyihalariga ta'siri baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, risklarni samarali boshqarish uchun zamonaviy risk-menejment vositalarini joriy etish, shaffof monitoring tizimini yaratish va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines the factors influencing the investment activities of commercial banks. This article studies the scientific basis for analyzing and managing enterprise risks arising in the process of financing investment projects based on mudaraba, one of the Islamic financing instruments in the banking sector of Uzbekistan. The study analyzes the economic essence of mudaraba transactions, types of risks and mechanisms for their distribution between the bank and the entrepreneur. The impact of financial, operational, Sharia compliance, information asymmetry and market risks on mudaraba projects is also assessed. According to the results of the study, scientific and practical proposals have been developed to effectively manage risks by introducing modern risk management tools, creating a transparent monitoring system and improving institutional mechanisms.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ mudaraba, islomiy banklar, risklarni boshqarish, investitsiya loyihalari, shariatga muvofiqlik, moliyaviy risk, operatsion risk, axborot assimetriyasi, investitsion muhit.
❖ mudaraba, islamic banks, risk management, investment projects, sharia compliance, financial risk, operational risk, information asymmetry, investment environment.

Kirish.

Islom banklarining faoliyati ularning aktiv operatsiyalarini samarali tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir. Har bir mamlakat

o'zining iqtisodiy, huquqiy, madaniy va diniy xususiyatlaridan kelib chiqib, islomiy moliyalashtirish tamoyillarini o'ziga mos shaklda joriy etgan. Bugungi kunda dunyoda

80 dan ortiq davlatda islom banklari faoliyat yuritadi, ularning umumiy aktivlari 4,5 trillion AQSh dollaridan oshgan. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, islomiy moliyalashtirish tizimining barqarorligi murabaha, ijara, mudaraba, musharaka, salam va istisna kabi operatsiyalarni puxta tashkil etish bilan belgilanadi. Bu bitimlar faqat iqtisodiy foyda emas, balki ijtimoiy adolat, barqarorlik va halollik tamoyillarini ham ta'minlaydi.

Jahon moliya tizimida islomiy moliyalashtirish mexanizmlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, foizsiz moliyalashtirishga asoslangan mudaraba shartnomalari investitsiya faoliyatida risk va daromadlarni adolatli taqsimlashga xizmat qiluvchi muhim instrument sifatida e'tirof etiladi. Mudaraba modeli bank (rabb ul-mal) va tadbirkor (mudarib) o'rtasida sheriklik munosabatlarini shakllantirgan holda real sektorni moliyalashtirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan O'zbekistonda islom moliyasi tizimini rivojlantirish va moliyaviy xizmatlar turini kengaytirish bo'yicha choralar belgilangan, unga ko'ra moliya bozorini diversifikatsiya qilish, Murabaha, Mudaraba, Musharaka, Wakalah kabi islomiy moliya modellarini joriy etish, shuningdek, kredit tashkilotlari faoliyatini Shariat standartlariga muvofiqlashtirish va soliq tizimini ushbu xizmatlarga moslashtirish nazarda tutilgan. 2030-yilga kelib, O'zbekistonda 10 tagacha islom banki faoliyatini yo'lga qo'yish hamda an'anaviy banklar tarkibida islomiy " oynalar" (windows) ochish rejalashtirilgan [1].

O'zbekiston Respublikasida islomiy moliyalashtirish instrumentlarini bank amaliyotiga joriy etish bo'yicha institutsional va huquqiy asoslar bosqichma-bosqich shakllanmoqda. Shu jarayonda mudaraba loyihalarini moliyalashtirishda yuzaga keladigan risklarni aniqlash, baholash va boshqarish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki an'anaviy kreditlashdan

farqli ravishda, mudaraba bitimlarida bank kapital yo'qotish riskini to'liq o'z zimmasiga oladi, tadbirkor esa boshqaruv va mehnat resurslari orqali ishtirok etadi.

Mazkur sharoitda korxonalar risklarini ilmiy asosda tahlil qilish va ularni boshqarishning samarali vositalarini ishlab chiqish mudaraba moliyalashtirishining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimida islomiy moliya instrumentlariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, foyda va zarar taqsimotiga asoslangan mudaraba shartnomalari banklar va real sektor o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, mudaraba loyihalarida mavjud bo'lgan moliyaviy, operatsion va axborot assimetriyasi risklari ushbu instrumentlarni samarali boshqarishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Banklarda mudaraba loyihalarini moliyalashtirishda korxonalar risklarini tahlil qilish masalalari so'nggi yillarda mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilmoqda.

Islomiy moliyalashtirish tizimi va uning asosiy instrumentlaridan biri bo'lgan mudaraba shartnomasi ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan nazariy jihatdan keng o'rganilgan. Mudaraba moliyalashtirishining konseptual asoslari islom iqtisodiyoti tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, unda foiz (riba) taqiqlanishi, risk va foydaning adolatli taqsimlanishi hamda real iqtisodiy faoliyat bilan bog'liqlik asosiy o'rin tutadi.

Iqbal va Mirakhor (2011) mudarabani bank va tadbirkor o'rtasidagi sheriklik munosabatlarining samarali shakli sifatida talqin qilib, uning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydilar [2]. Ularning fikricha, mudaraba loyihalarida bank

passiv investor sifatida ishtirok etadi va bu holat banklar uchun kredit riskidan tashqari, boshqaruv va axborot risklarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Chapra (2009) islomiy moliyalashtirish tizimida risk tushunchasini ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlik bilan bog'lab izohlaydi. Muallif mudaraba shartnomalarida risklarning to'g'ri taqsimlanishi iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga xizmat qilishini qayd etadi [3]. Shuningdek, risklarni haddan tashqari bank zimmasiga yuklash ushbu instrumentning mohiyatiga zid ekanligini ko'rsatadi.

Khan (2015) islomiy banklarda risklarni boshqarish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotida mudaraba loyihalarida moliyaviy risklar bilan bir qatorda operatsion va shariatga muvofiqlik risklari mavjudligini asoslab beradi [4]. Muallif risklarni boshqarish uchun maxsus baholash modellari va monitoring mexanizmlarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Obaidullah (2005) tomonidan islomiy moliya institutlari uchun ishlab chiqilgan nazariy risk baholash yondashuvlari mudaraba loyihalarida axborot assimetriasini kamaytirish va shaffoflikni oshirishga qaratilgan [5]. Ushbu nazariy qarashlar tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

Mudaraba loyihalarida risklarni tahlil qilish va boshqarish bo'yicha empirik tadqiqotlar asosan islomiy bank tizimi rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan.

Abdul-Rahman va Nor (2016) Malayziya islomiy banklari faoliyati misolida olib borgan empirik tadqiqotlarida mudaraba loyihalarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan korxonalarning moliyaviy intizomi va bank tomonidan olib boriladigan monitoring darajasiga bog'liqligini aniqlaganlar [6]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, doimiy moliyaviy hisobotlar va shaffof axborot almashinuvi risk darajasini sezilarli kamaytiradi.

Rossiyalik olim R.I. Bekkin islomiy moliya institutlarining nazariy asoslarini o'rganib, mudaraba shartnomalarini foizsiz moliyalashtirishning klassik modeli sifatida talqin qiladi [7]. U risk va foyda taqsimotining adolatli mexanizmi islomiy banklarning asosiy ustunligi ekanini ta'kidlaydi, biroq amaliyotda ushbu modelni qo'llashda yuqori operatsion risklar mavjudligini qayd etadi (Bekkin, 2019).

O'zbekiston sharoitida olib borilgan empirik tadqiqotlar nisbatan cheklangan bo'lib, mavjud ilmiy ishlar ko'proq muqobil moliyalashtirish mexanizmlarining umumiy rivojlanish istiqbollari, institutsional muhit va bozor infratuzilmasining shakllanish jarayonlariga bag'ishlangan. Xususan, ayrim tadqiqotchilar bank va korxona o'rtasidagi sheriklik munosabatlarida huquqiy-me'yoriy bazaning yetarli darajada mukammal emasligi, shartnoma amaliyotining standartlashmaganligi hamda axborot shaffofligi pastligi kabi omillar mavjudligini ta'kidlaydilar.

Mazkur omillar natijasida tomonlar o'rtasida mas'uliyat taqsimoti, foyda va zararlarni hisobga olish mexanizmlari hamda monitoring jarayonlari aniq belgilab olinmagan holatlarda operatsion va moliyaviy risklar ortishi ehtimoli yuzaga keladi. Shu bilan birga, institutsional infratuzilmaning rivojlanish darajasi, kadrlar malakasi, korporativ boshqaruv madaniyati va risklarni baholash tizimlarining yetarli darajada shakllanmaganligi ham ushbu jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston sharoitida kelgusida amalga oshiriladigan empirik tadqiqotlarda nafaqat moliyalashtirish modellari samaradorligi, balki ularni qo'llashda yuzaga keladigan institutsional, huquqiy va boshqaruv omillarini kompleks tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa moliyaviy vositalarning amaliy samaradorligini oshirish, risklarni kamaytirish va iqtisodiy subyektlar o'rtasida barqaror hamkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Islomiy moliyalashtirish va uning asosiy instrumentlaridan biri bo'lgan mudaraba shartnomasi nazariy jihatdan xorijiy olimlar bilan bir qatorda mahalliy va rus olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda mudarabaning iqtisodiy mohiyati, risklarni taqsimlash mexanizmi va bank tizimidagi o'rni keng yoritilgan.

Ushbu nazariy yondashuvlar maqolaning konseptual asosini shakllantirib, mudaraba loyihalarida korxonalarga xos risklarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimi ko'p omilli, murakkab va o'zaro bog'langan bo'lib, unda risklarni boshqarish, kapitallashuv darajasi, me'yoriy talablar, bozor infratuzilmasi va investitsion muhitning umumiy barqarorligi muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mudaraba – sherikchilikning o'ziga xos bir turi bo'lib, bunda bir tomon mablag' (sarmoya) beradi, ikkinchi taraf sherikchilik doirasidagi biznesni (ya'ni korxona yoki tadbirkorlik loyihasini) boshqaradi. Malbag' bergan «robbul mol» deyiladi (arabchadan mol/mulk/mablag' egasi yoki sarmoyador deb tarjima qilish mumkin), loyihani boshqaruvchi esa «mudorib» deyiladi.

Mushoraka bilan Mudaraba o'rtasida farqlar quyidagilardir:

(1) Mushorakada sarmoya barcha sheriklar tomonidan kiritiladi, mudorabada esa faqat «Robbul mol» sarmoya kiritadi va u

(sarmoya) bo'yicha xatarni ham o'z bo'yniga oladi;

(2) Mushorakada sheriklarning barchasi biznes boshqaruvida bevosita ishtiroq etishlari mumkin, mudorabada esa biznes faqat mudorib tomonidan boshqariladi (ya'ni sarmoya kiritgan sherik biznes boshqaruvida ishtirok etolmaydi).

(3) Mushoraka doirasida ko'rilgan zarar har bir sherikning kiritgan sarmoyasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi, mudorabada esa zarar faqat sarmoya kiritgan tomonning bo'ynida bo'ladi, chunki mudorib biznesga pul tikmaydi. Agar tadbirkorlik faoliyati natijasida zarar ko'rilsa, Mudorib faoliyat doirasida qo'lga kiritilishi kerak bo'lgan foydada ulushdan quruq qoladi, hamda uning boshqaruvchi sifatidagi obro'siga putur yetishi mumkin (ya'ni agar Mudorib astoydil xarakat qilmaganligi, ishni to'g'ri tashkillashtirmaganligi, puxta reja qilolmaganligi uchun zarar ko'rilsa, boshqa sarmoyadorlar uni boshqa biznes loyihalarga Mudorib sifatida jalb qilmasliklari mumkin). Shu bilan birga, agar zarar uning o'z vazifalarini bajarmaganligi, loqaydligi, noqonuniy xatti-harakatlari tufayli ko'rilganligi aniqlansa, u holda u zararni qoplab beradi. Shu kabi xatarlarni inobatga olgan holda sarmoyador mudoraba asosidagi faoliyatni boshlashda Mudoribdan garov talab qilishi mumkin, islomda bunga ruxsat berilgan. Albatta, olingan garov zarar Mudorib o'z vazifalarini bajarmaganligi, loqaydligi, noqonuniy xatti-harakatlari tufayli ko'rilganligi isbotlansagina ishlatilishi mumkin. Bu masala tomonlar o'rtasida tuzilgan mudoraba shartnomasida ko'zda tutilgan bo'lishi lozim.

(4) Mushoraka doirasida olingan moliyaviy majburiyatlar korxonaning mol-mulki (aktivlari)dan ko'p bo'lsa, u holda ushbu majburiyatlar sheriklar kiritgan sarmoyaga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Lekin agar tomonlar mushoraka davomida hech qanday qarz olmaslikka kelishishgan bo'lsa-yu, sheriklardan biri ushbu kelishuvni buzgan holda qarz olgan bo'lsa, u holda paydo bo'lgan

moliyaviy majburiyatlar bo'yicha javobgarlik uning zimmasiga tushadi. Mudorabada mablag' kiritgan tomon mudoribga uning nomidan qarz olish vakolatini bersagina biznesga qarz mablag'lari jalb qilishi mumkin.

Agar Sarmoyador (Robb ul-mol) Mudorib bilan muayyan aniq bir biznes yuzasidan kelishsa va aynan o'sha biznesga pul tiksa, buni nomi «cheklangan mudoraba» (arab tilida «Mudoraba al-muqoyyada») deyiladi. Lekin sarmoyador mudoribga tikilgan sarmoya doirasida mudorib istagan har qanday halol biznes turi bilan shug'ullanish vakolatini bersa, u holda buning nomi «cheklanmagan mudoraba» (arab tilida «Mudoraba al-mutlaqa») deyiladi.

Sarmoyador bir biznes loyiha doirasida bir necha mudorib bilan mudoraba shartnomasi tuzishi ham mumkin, ya'ni u bir necha mudoribga mablag' taqdim qiladi va ular taqdim qilingan sarmoyani ushbu loyiha doirasida hamkorlar sifatida tasarruf qilishadi. Ushbu mudoraba shartnomasi doirasida olingan foyda tomonlar o'rtasida kelishilgan nisbatda taqsimlanadi.

Mudorib biznes doirasida o'zi lozim topgandek faoliyat yuritishi mumkin, ammo agar biror noodatiy/noyob amaliyot bajarish zarurati tug'lsa u holda mudorib sarmoyadarning roziligini olishi kerak bo'ladi.

Mudoraba shartnomasi shar'iy jihatdan kuchga ega bo'lishi uchun tomonlar (ya'ni Sarmoyador va Mudorib) foyda taqsimoti haqida kelishib olishlari zarur. Shariatda foyda taqsimoti masalasida aniq bir ko'rsatma yo'q. Bu masala mudoraba ishtirokchilari ixtiyoriga qoldirilgandir. Ular foydani teng bo'lishlari ham, turli nisbatda bo'lishlari ham mumkin.

Foydada ulush, olingan haqiqiy foyda asosida taqsimlanadi, ya'ni foyda ko'rilsa foydadan avvaldan kelishilgan miqdorda ulush ajratiladi, agar foyda ko'rilmasa ulush ajratilmaydi. Shuningdek, tomonlar qat'iy miqdordagi to'lovlar qilinishiga kelishishi mumkin emas.

Masalan, tomonlarning biriga har oyda 100 dollar miqdorida foyda berilishiga kelishish yoki sarmoyador biznesga kiritgan sarmoyasining muayyan bir foizini (masalan 20 foiz) foyda sifatida olishiga kelishish mumkin emas. Bunday kelishuv botil (nojoiz) sanaladi. Foydada ulush faqat olingan haqiqiy foydaga nisbatan avvaldan kelishilgan nisbatda taqsimlanishi mumkin. Bu nisbat 20 foizga 80 foiz ham, 40 foizga 60 foiz yoki bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin.

Shuningdek, tomonlar turli biznes turi uchun foyda nisbati turlicha bo'lishiga kelishishlariga ham mumkin. Masalan robb-ul mol mudoribga, «Agar un bilan savdo qilsang foydadan 40 foiz beraman, agar bug'doy bilan savdo qilsang 25 foiz beraman», deyishi mumkin.

Mudorib, foydada kelishilgan ulushdan tashqari maosh yoki mukofot talab qilishi mumkin emas. Ushbu masalada barcha mazhablar yakdillar.

Hanafiy mazhabi ulamolari mudoraba doirasida mudorib xizmat safariga borgan payda uning bevosita shu safar doirasidagi barcha xarajatlari, shu jumladan yeb-ichishi, mehmonxonada xarajatlari olib borilayotgan biznes hisobidan qoplanadi, tabiiyki o'zi muqim bo'lib turgan joyda bunday xarajatlar mudoribning o'z hisobidan amalga oshiriladi deb hisoblaydilar.

Agar mudoraba doirasida ba'zi biznes yo'nalishlarda zarar, ba'zilarida esa foyda ko'rilsa, olingan foyda ko'rilgan zararlarni qoplashga yo'naltiriladi, agar foyda ortib qolsa u holda qolgan foyda tomonlar o'rtasida kelishilgan nisbatda taqsimlanadi.


Mudaraba asosida moliyalashtiriladigan loyihalarda quyidagi risk turlari (1-rasm) ajratib ko'rsatiladi:

1. Moliyaviy risklar – loyiha daromadlilikining pasayishi, pul oqimlarining barqaror emasligi;
2. Operatsion risklar – boshqaruv xatolari, ishlab chiqarish uzilishlari;

3. Axborot assimetriyasi riski – tadbirkor tomonidan real moliyaviy holatning to'liq oshkor etilmasligi;

4. Shariatga muvofiqlik riski – faoliyatning islomiy tamoyillarga zid kelishi;

5. Bozor risklari – narxlar tebranishi, talabning pasayishi.



1-rasm. Mudaraba loyihalarida yuzaga keladigan asosiy risklar¹

Mudaraba asosida moliyalashtirish sheriklik tamoyiliga asoslangan bo'lib, unda kapital egasi (rab ul-mal) va tadbirkor (mudarib) o'rtasida foyda taqsimlanadi, zarar esa asosan kapital egasi zimmasiga tushadi. Shu sababli, risklarni to'g'ri aniqlash va baholash mudaraba loyihalarining barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mudaraba loyihalarini moliyalashtirishga risklarning ta'sirini baholashni va baholash mezonlarini ko'rib chiqamiz.

1. Moliyaviy risklarning ta'siri.

Moliyaviy risklar daromadlilik pasayishi, pul oqimi beqarorligi va kutilgan foydaning olinmasligi bilan bog'liq bo'lib, mudarabada kafolat yo'qligi sabab ayniqsa yuqori bo'ladi va investitsiya jozibadorligi hamda loyiha barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi.

Baholash mezonlari:

- ❖ sof foyda va zarar ko'rsatkichlari;
- ❖ pul oqimlarining barqarorligi;

❖ rejalashtirilgan va real daromad o'rtasidagi tafovut.

2. Operatsion risklarning ta'siri.

Operatsion risklar boshqaruvdagi xatolar, tajribasizlik, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishdagi uzilishlar natijasida yuzaga keladi. Mudaraba shartnomasida barcha operatsion faoliyat mudarib zimmasida bo'lgani sababli, uning malakasi loyiha muvaffaqiyatini bevosita belgilaydi. Operatsion risklarning oshishi loyiha samaradorligini pasaytirib, moliyaviy yo'qotishlarga olib keladi.

Baholash mezonlari:

- ❖ tadbirkorning tajribasi va obro'si;
- ❖ ichki nazorat tizimining mavjudligi;
- ❖ ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi.

3. Shariatga muvofiqlik riskining ta'siri.

Shariatga muvofiqlik riski loyihaning islomiy moliya tamoyillariga zid faoliyat olib borishi ehtimoli bilan bog'liq. Agar loyiha shariat talablariga mos kelmasa, shartnoma bekor qilinishi yoki foyda noqonuniy (harom)

¹Mualliflar ishlanmasi.

deb topilishi mumkin. Bu esa nafaqat moliyaviy zarar, balki reputatsion yo'qotishlarga ham olib keladi.

Baholash mezonlari:

- ❖ shariat nazorati (Shariah board) mavjudligi;
- ❖ faoliyat turining halolligi;
- ❖ shartnoma shartlarining islomiy qoidalarga muvofiqligi.

4. Axborot assimetriyasi riskining ta'siri.

Axborot assimetriyasi riski mudarib tomonidan loyiha holati, daromad va xarajatlar haqida to'liq va haqqoniy ma'lumot berilmasligi bilan bog'liq. Bu risk mudaraba bitimlari uchun eng dolzarb risklardan biri hisoblanadi, chunki kapital egasi kundalik boshqaruvda ishtirok etmaydi. Natijada noto'g'ri qarorlar qabul qilinishi va zarar ehtimoli ortadi.

Baholash mezonlari:

- ❖ moliyaviy hisobotlarning shaffofligi;
- ❖ audit va monitoring tizimlari;
- ❖ axborot almashinuvi chastotasi.

5. Bozor risklarining ta'siri.

Bozor risklari narx tebranishi, talab pasayishi va raqobat kuchayishi bilan bog'liq bo'lib, mudaraba loyihalarida foydaning kamayishi yoki yo'qligiga olib keladi hamda rejalarni qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Baholash mezonlari:

- ❖ bozor talabi va taklifi tahlili;
- ❖ narxlar dinamikasi;
- ❖ raqobat muhiti.

Malayziya Islom moliyasining eng ilg'or markazlaridan biri bo'lib, bu tizim 1983-yilda "Islamic Banking Act" qabul qilinishi bilan shakllana boshlagan. Mazkur qonun mamlakatda Islom bankchiligining huquqiy

asoslarini yaratdi va keyingi yillarda tizimning barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi. Hozirgi kunda Malayziyada 16 ta to'liq Islom bank, 6 ta tijorat bankning Islomiy bo'limlari hamda 200 dan ortiq Islomiy moliya institutlari faoliyat yuritmoqda. Malayziya tajribasining muvaffaqiyat kaliti innovatsion yondashuvda namoyon bo'lib, u "dual banking system" - ya'ni an'anaviy va Islomiy banklar parallel faoliyat yuritadigan, biroq alohida regulatsiya mexanizmi bilan tartibga solinadigan tizimga asoslanadi. Bu yondashuv moliya bozorida raqobat muhitini saqlagan holda, shariatga muvofiq mahsulotlarni keng joriy etish imkonini bergan. Malayziyada Islomiy moliya faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: Murabaha va Bay' Bithaman Ajil (muddatli to'lov asosida savdo) - qisqa muddatli moliyalashtirish vositalari; Musharaka va Mudaraba - uzoq muddatli investitsiya loyihalarini uchun qo'llaniladi; Ijara muntahiya bittamlik - lizing asosidagi moliyalashtirish turi; Sukuk (Islomiy obligatsiyalar) esa davlat infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda keng qo'llanadi. 2024-yil holatiga ko'ra, Malayziyada Islomiy moliya bozorining umumiy ulushi 38,2 foizni tashkil etadi. Islomiy bank aktivlari hajmi 930 milliard ringgit (taxminan 200 milliard AQSh dollari)ga teng. Shuningdek, Malayziya global sukuk bozorining 60 foizini egallab, dunyoda yetakchi o'rinda turadi.

Malayziya islomiy banklari (Maybank Islamic, CIMB Islamic) tomonidan mudaraba loyihalarini moliyalashtirishda risklarni oldindan va jarayon davomida baholash tizimi joriy etilgan.

1-jadval

Risk tahlili bosqichlari*

Bosqich	Amalga oshiriladigan ishlar
<i>Pre-financing (Oldindan moliyalashtirish)</i>	Korxonaning moliyaviy hisobotlari, biznes-reja, cash-flow stress test (pul oqimi stress testi)
<i>Contractual (Shartnoma)</i>	Daromad taqsimoti, zarar uchun javobgarlik shartlari
<i>Monitoring</i>	Har chorakda audit, KPI nazorati
<i>Post-financing (Moliyalashtirishdan keyin)</i>	Risk-return (xavf - daromad) tahlili va modelni qayta ko'rib chiqish

*Internet ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Malayziya islomiy banklari (Maybank Islamic, CIMB Islamic)da mudaraba loyihalarini moliyalashtirishda risklar oldindan va jarayon davomida aniqlanadi. Bunda, Mudarib (korxona) boshqaruv salohiyati asosiy risk omili sifatida baholanadi va bank zararlarni to'liq qabul qilmaslik uchun kuchli monitoring mexanizmini qo'llaydi.

Pokiston tajribasi Islomiy moliya institutlarini ijtimoiy mas'uliyat, riskni adolatli taqsimlash va iqtisodiy inklyuziya tamoyillariga asoslangan holda rivojlantirishda amaliy jihatdan muvaffaqiyatli model sifatida e'tirof etiladi. Pokiston tajribasi Islom moliya tizimini rivojlantirishda bir qator muhim saboqlarni namoyon etadi. Avvalo, hukumat va markaziy bank siyosatining uyg'unligi sohaning barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Islomiy moliyani rivojlantirishda davlat siyosati, tartibga soluvchi organlar va moliyaviy institutlar o'rtasidagi muvofiqlik moliya tizimining samaradorligini oshiradi hamda investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, Islomiy banklarning mintaqaviy hamkorligini kuchaytirish ham muhim saboq sifatida qayd etiladi. Mintaqaviy integratsiya orqali tajriba almashinuvi, yangi moliyaviy mahsulotlar yaratish va transchegaraviy investitsiyalarni rag'batlantirish imkoniyatlari kengayadi. Bundan tashqari, Pokiston amaliyoti shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohaslarini Mudaraba asosida moliyalashtirish iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi, bandlikni oshiradi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni barqaror resurslar bilan ta'minlaydi. Shu jihatdan, Pokiston modeli Islom moliyasining real sektor bilan integratsiyasini ta'minlashda o'rnak bo'lishi mumkin.

Qozog'iston tajribasi: Qozog'iston Markaziy Osiyoda Islom moliyasi sohasida eng ilg'or tajribalardan birini yaratgan davlat hisoblanadi. 2009-yilda "Islom moliyasi to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi ushbu

yo'nalishning huquqiy asosini mustahkamladi. 2010-yilda esa Birlashgan Arab Amirliklari sarmoyasi asosida "Al Hilal Bank" faoliyatini boshladi, bu mintaqada birinchi Islom banki sifatida muhim bosqich bo'ldi. 2018-yilda tashkil etilgan "Astana International Financial Centre (AIFC)" esa mamlakatda xalqaro moliyaviy hamkorlik markaziga aylandi. U ingliz huquqiga asoslangan bo'lishiga qaramay, Shariat Kengashi tomonidan nazorat qilinadi va bu jihat Islom moliyasining tamoyillariga muvofiqlikni ta'minlaydi. Qozog'iston modelining asosiy xususiyatlari Musharaka va Mudaraba bitimlarini investitsion loyihalarda asosiy vosita sifatida qo'llash, Sukuk emissiyasi orqali infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish hamda Ijara bitimlarini energetika, transport va sanoat tarmoqlarida keng joriy etishdan iborat. Bu mexanizmlar mamlakat iqtisodiyotining real sektoriga Islom moliya vositalarini muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkonini berdi. Amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda Qozog'istonning Islom bank aktivlari 2,1 milliard AQSh dollarini tashkil etgan, Sukuk emissiyasi hajmi esa 450 million dollarga yetgan. AIFC orqali 60 dan ortiq xorijiy Islomiy moliya kompaniyalari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bu Qozog'istonni mintaqaviy moliyaviy markazga aylantirmoqda. Qozog'iston tajribasidan olinadigan saboqlar shundan iboratki, Islom moliyasi rivoji uchun barqaror huquqiy infratuzilma yaratilishi zarur. Shuningdek, AIFC modeli O'zbekiston sharoitida ham qo'llanilishi mumkin bo'lib, bu xorijiy sarmoyadorlarni Islomiy vositalar orqali jalb etish va mamlakat moliya bozorini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Indoneziya Islom moliyasi sohasida yetakchi davlatlardan biri bo'lib, bu tizim foyda olish bilan bir qatorda ijtimoiy manfaatni ham ko'zlaydi. Islomiy moliya tizimi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki jamiyatning ijtimoiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan. "Zakat, Waqf va Salam" bitimlari orqali aholining kambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlash,

ularning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, "Green Islamic Finance" tashabbusi ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi moliya vositasi sifatida e'tirof etilgan. 2024-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, Indoneziyada Islomiy moliya aktivlari 710 trillion rupiyani (taxminan 47 milliard AQSh dollari) tashkil etadi, Islomiy banklarning bozor ulushi 20 foizga yetgan, va Salam bitimlari orqali 1,5 million fermerga moliyaviy yordam ko'rsatilgan. Indoneziya tajribasi O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb

etadi. Jumladan, qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda "Salam" mexanizmini joriy etish, ijtimoiy moliya – zakat va vaqf tizimini iqtisodiy muomalaga integratsiya qilish hamda diniy tashkilotlar orqali moliyaviy inklyuziyani oshirish mamlakatimizda Islom moliyasini rivojlantirishda samarali yo'nalish bo'lishi mumkin.

Indoneziya islomiy banklari (Bank Syariah Indonesia, BRI Syariah) da mudaraba loyihalarini moliyalashtirishdagi risklar NPF va VaR ko'rsatkichlari asosida o'lchanadi.

2-jadval

Mudaraba loyihalarida risk ko'rsatkichlari*

Ko'rsatkichlar	Izoh
NPF (Non-Performing Financing-Ishlamaydigan moliyalashtirish)	Mudaraba loyihalarining muammoli ulushi
ROA	Bank daromadliligi va risk o'rtasidagi bog'liqlik
VaR	Loyihaning maksimal kutilayotgan yo'qotishi

*<https://www.bankbsi.co.id/> ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Indoneziya islomiy banklari (Bank Syariah Indonesia, BRI Syariah) da mudaraba loyihalarini moliyalashtirishda risklar NPF(Ishlamaydigan moliyalashtirish), ROA va VaR ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi. Bunda mudaraba darajasi musharakaga nisbatan past, ammo, daromad o'zgaruvchanligi yuqori bo'lishi mumkin.

Mudaraba loyihalarida risklarni samarali boshqarish uchun quyidagi vositalar taklif etiladi:

- ❖ loyiha oldi moliyaviy va texnik ekspertizani kuchaytirish;
- ❖ daromadlarni taqsimlash mexanizmlarini shaffof belgilash;
- ❖ bosqichma-bosqich moliyalashtirish tizimini joriy etish;
- ❖ muntazam monitoring va audit mexanizmlarini tatbiq etish;
- ❖ shariat maslahatchilari ishtirokini ta'minlash.

Banklarda mudaraba loyihalarini moliyalashtirishda risklarni samarali

boshqarish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Tijorat banklarida mudaraba loyihalarini moliyalashtirishdan oldin ko'p omilli skoring tizimini joriy etish, unda moliyaviy ko'rsatkichlar (rentabellik, likvidlik, pul oqimi barqarorligi) tahlil qilinadi, menejment-boshqaruv sifati o'rganiladi, bozor riski, tarmoq riski, shariatga muvofiqlik riski aniqlanadi, har bir loyiha uchun risk reytingi (A, B, C, D) ishlab chiqiladi va risk darajasiga qarab foyda taqsimoti nisbatlari differensiallashtiriladi.

2. Stress-test va ssenariy tahlilini joriy etish, unda makroiqtisodiy o'zgarishlar (inflyatsiya, valyuta kursi, foiz stavkalari o'zgarishi) ta'siri baholanadi, eng yomon holat (worst-case scenario) bo'yicha zarar ehtimoli aniqlanadi va likvidlilik yetishmovchiligi xavfi oldindan baholanadi.

3. KPI asosidagi monitoring mexanizmini yaratish, unda har bir mudaraba loyihasi uchun sof foyda marjasi, aylanma mablag' aylanish

tezligi, xarajatlar dinamikasi, rejalashtirilgan va real natijalar tafovuti o'rganilib chiqiladi.

4. Mustaqil Shariat va audit nazoratini joriy etish, unda ichki Shariat kengashi faoliyati kuchaytiriladi, har chorakda Shariat muvofiqligi auditi o'tkaziladi va mudaraba shartnomalarining shaffofligi ta'minlanadi.

5. Moliyaviy hisobotlarning ochiqqligini oshirish, unda raqamli hisobot topshirish tizimi yo'lga qoyiladi, bank va investorlar uchun yagona axborot portal tashkil etiladi va blockchain asosida shartnoma va operatsiyalarni qayd etish imkoniyati paydo bo'ladi.

6. Risklarni taqsimlash mexanizmini kuchaytirish, unda mudaraba shartnomasida risklar aniq taqsimlanadi, zarar yuzaga kelganda javobgarlik chegaralari belgilanadi va kafolat fondlari tashkil etiladi.

7. Sug'urta va takaful mexanizmlarini rivojlantirish, unda takaful asosida operatsion risk sug'urtasi joriy etiladi, aktivlar sug'urtalanadi va risk uchinchi tomonga qisman o'tkaziladi.

8. Kadrlar malakasini oshirish, bunda xodimlar risk-menejment bo'yicha xalqaro sertifikatlar (CIRM, FRM) ga ega bo'ladi va islomiy moliya risklarini boshqarish bo'yicha treninglar muntazam o'tkaziladi.

O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l - Malayziya modelining regulativ yondashuvi, Indoneziyaning ijtimoiy moliya tajribasi va Qozog'istonning investitsion mexanizmini uyg'unlashtirishdir. Bu orqali O'zbekiston 2030-yilgacha Markaziy Osiyoda Islom moliyasi markazi sifatida yetakchi o'rin egallashi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston bank sektorida mudaraba loyihalarini moliyalashtirishda korxonalar risklarini boshqarish tizimi hali yetarli darajada shakllanmagan. Risklarni samarali boshqarish mexanizmlarining yo'qligi banklarning ushbu

instrumentlardan faol foydalanishini cheklamoqda.

O'zbekiston tijorat banklarida islom moliyasini 2023-2025-yillarda bosqichma-bosqich joriy etish ishlari amalga oshirildi. Hozirda faoliyat yuritayotgan "Islomiy oynalarda"da murabaha va ijara operatsiyalari asosiy yo'nalishni tashkil etadi. Shariat asosidagi yangi moliyaviy mahsulotlar, jumladan, mudaraba hisobvaraqlari va istisna shartnomalarini joriy etish bo'yicha loyihalar olib borilmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tijorat banklarida mudaraba loyihalarini moliyalashtirishda risklarni samarali boshqarish uchun zamonaviy risk-menejment vositalarini joriy etish, shaffof monitoring tizimini yaratish va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklarida mudaraba asosida loyihalarni moliyalashtirishni rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- ❖ islomiy risk-menejment standartlarini joriy etish;

- ❖ normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

- ❖ bank xodimlarining malakasini oshirish;

- ❖ shaffof va raqamli monitoring tizimlarini yaratish zarur.

2. Banklarda mudaraba loyihalarini moliyalashtirishda risklarni samarali boshqarish uchun quyidagi vositalardan foydalanish taklif etiladi:

- ❖ loyiha oldi moliyaviy va texnik ekspertizani kuchaytirish;

- ❖ daromadlarni taqsimlash mexanizmlarini shaffof belgilash;

- ❖ bosqichma-bosqich moliyalashtirish tizimini joriy etish;

- ❖ muntazam monitoring va audit mexanizmlarini tatbiq etish;

- ❖ shariat maslahatchilari ishtirokini ta'minlash.

3. Tijorat banklarida mudaraba loyihalarini moliyalashtirishdan oldin ko'p omilli skoring tizimini joriy etish, unda moliyaviy ko'rsatkichlar (rentabellik, likvidlik, pul oqimi barqarorligi) tahlil qilinadi, menejment-boshqaruv sifati o'rganiladi, bozor riski, tarmoq riski, shariatga muvofiqlik riski aniqlanadi, har bir loyiha uchun risk reytingi (A, B, C, D) ishlab chiqiladi va risk darajasiga qarab foyda taqsimoti nisbatlari differensiallashtiriladi.

4. Stress-test va ssenariy tahlilini joriy etish, unda makroiqtisodiy o'zgarishlar (inflyatsiya, valyuta kursi, foiz stavkalari o'zgarishi) ta'siri baholanadi, eng yomon holat (worst-case scenario) bo'yicha zarar ehtimoli aniqlanadi va likvidlik yetishmovchiligi xavfi oldindan baholanadi.

5. KPI asosidagi monitoring mexanizmini yaratish, unda har bir mudaraba loyihasi uchun sof foyda marjasi, aylanma mablag' aylanish tezligi, xarajatlar dinamikasi, rejalashtirilgan va real natijalar tafovuti o'rganilib chiqiladi.

6. Mustaqil Shariat va audit nazoratini joriy etish, unda ichki Shariat kengashi faoliyati kuchaytiriladi, har chorakda Shariat muvofiqligi auditori o'tkaziladi va mudaraba shartnomalarining shaffofligi ta'minlanadi.

7. Moliyaviy hisobotlarning ochiqqligini oshirish, unda raqamli hisobot topshirish tizimi yo'lga qoyiladi, bank va investorlar uchun yagona axborot portal tashkil etiladi va blockchain asosida shartnoma va operatsiyalarni qayd etish imkoniyati paydo bo'ladi.

8. Risklarni taqsimlash mexanizmini kuchaytirish, unda mudaraba shartnomasida risklar aniq taqsimlanadi, zarar yuzaga kelganda javobgarlik chegaralari belgilanadi va kafolat fondlari tashkil etiladi.

9. Sug'urta va takaful mexanizmlarini rivojlantirish, unda takaful asosida operatsion risk sug'urtasi joriy etiladi, aktivlar sug'urtalanadi va risk uchinchi tomonga qisman o'tkaziladi.

10. Kadrlar malakasini oshirish, bunda xodimlar risk-menejment bo'yicha xalqaro sertifikatlar (CIRM, FRM) ga ega bo'ladi va islomiy moliya risklarini boshqarish bo'yicha treninglar muntazam o'tkaziladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi banklarning investitsion faolligini oshirish, real sektorni barqaror moliyalashtirish va islomiy moliya bozorining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-noyabrdagi "Islom moliyasi tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5271-son qarori.
2. Iqbal, Z. & Mirakhor, A. (2011) *An Introduction to Islamic Finance*. Singapore: Wiley.
3. Chapra, M.U. (2009) *Ethics and Economics: An Islamic Perspective*. Leicester: Islamic Foundation.
4. Khan, T. (2015) *Risk Management in Islamic Banking*. Jeddah: IRTI.
5. Obaidullah, M. (2005) *Islamic Financial Services*. Jeddah: IRTI.
6. Abdul-Rahman, A. & Nor, S. (2016) *Islamic Banking Risk Management*. Kuala Lumpur: IBFIM.
7. Bekkin, R.I. — *Islom iqtisodiy modeli va zamon*. / "O'zbekiston" NMIU, Toshkent. 2019-yil, 360 b.